

**O'ZBEKISTON HUDUDLARIDAGI TURIZM SALOHIYATINING QIYOSIY
TAHLILI HAMDA OAVDA YORITILISHI: BOYSUN, RISHTON,
YANGIQO'RG'ON VA CHUST TUMANLARI MISOLIDA.**

Ismoilova Omina Maxmudjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

“Jurnalistika” ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

aminaa77ismail@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonning Surxandaryo viloyatidagi Boysun, Farg'ona viloyatidagi Rishton, Namangan viloyatidagi Yangiqo'rg'on hamda Chust tumanlari tabiiy-geografik joylashuvi, demografik tuzilishi, tarixiy va madaniy meroslarga egaligi, shuningdek turistik maskanlari va salohiyati nuqtayi nazaridan o'zaro taqqoslanadi, o'xshashlik va farqlari, o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Hududlarning turizm salohiyatini oshirishda medianing o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi, shuningdek jurnalistik loyihalar taklif qilinadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Boysun, Rishton, Yangiqo'rg'on, Chust, turizm salohiyati, madaniy meros.*

Аннотация: *В данной статье сравниваются районы Бойсун Сурхандарьинской области, Риштан Ферганской области, а также Янгикурган и Чуст Наманганской области Республики Узбекистан с точки зрения их природно-географического расположения, демографической структуры, наличия исторического и культурного наследия, а также туристических объектов и потенциала. Анализируются сходства и различия, а также уникальные особенности этих территорий. Рассматривается роль и значение медиа в повышении туристического потенциала регионов, а также предлагаются журналистские проекты.*

Ключевые слова: *Узбекистан, Бойсун, Риштан, Янгикурган, Чуст, туристический потенциал, культурное наследие.*

Annotation: *This article compares Boysun district in Surkhandarya region, Rishton district in Fergana region, and Yangiqorgon and Chust districts in Namangan region of Uzbekistan in terms of their natural-geographical location, demographic structure, historical and cultural heritage, as well as tourist sites and potential. The similarities, differences, and unique characteristics of these areas are analyzed. The role and importance of media in increasing the tourism potential of the regions are examined, and journalistic project proposals are offered.*

Keywords: *Uzbekistan, Boysun, Rishton, Yangiqorgon, Chust, tourism potential, cultural heritage.*

Kirish. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan bo'lib, go'zal tabiat, o'ziga xos tabiiy boyliklar hamda boy madaniy merosga ega mamlakat hisoblanadi. Mamlakatdagi tabiat xilma-xilligi uning bepayon tog'li hududlari, cho'l va dasht landshaftlari, daryo va ko'llari borligida va o'zaro uyg'unlashganida namoyon bo'ladi. O'zbekiston ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra 12ta viloyat (Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax, Xorazm, Toshkent va Navoiy), Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashkil topgan bo'lib, ular butun bir mamlakatni tashkil qilsada, har bir hudud tabiiy hamda madaniy meroslari nuqtayi nazaridan o'zaro farqlanadi. Shu o'rinda uzoq asrlardan buyon sirli hududlardan bo'lib kelgan, shimoldan va janubdan tog'lar bilan o'ralgan Surxondaryo vohasi, xushhavo iqlimi tufayli nafaqat O'zbekistonning balki Markaziy Osiyoning gavhari nomini olgan Farg'ona vodiysi, Chatqol hamda Qurama tog'lari bilan o'ralgan Namangan viloyatlari - bir qaraganda Samarqand, Buxoro kabi turizm salohiyati kuchli hududlar deb ko'rilmaligi mumkin, ammo ulardagi tabiat mo'jizalari, milliy urf-odat va qadriyatlar nafasi ufirib turadigan markazlar, asrlar davomida saqlanib kelgan obidalar o'rganilsa va tahlil qilinsa, shu bilan bir qatorda keng targ'ib qilinsa O'zbekiston turizm rivojida katta hissa qo'sha olishini anglash mumkin.

Tabiiy-geografik joylashuviga ko'ra Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubiga to'g'ri kelib, iqlimi keskin kontinental hisoblanadi, tog'li va tekislik hududlaridan tashkil topgan. "XIX asrning oxirgi choragigacha Hisor tizmasining janubida joylashgan tog'lar deyarli o'rganilmagan edi. 1875-yilda "Hisor ekspeditsiyasi" davomida Surxondaryo viloyatining yangi xususiyatlari kashf etila boshlandi. Ma'lum bo'lishicha, Surxon vohasi tekislikning pastida joylashgan bo'lib, sharqdan, shimoldan va g'arbdan tog' tizmalari bilan o'ralgan. Janubdan vohani O'rta Osiyodagi eng sersuv daryo – Amudaryo yuvib turadi. Geografik joylashuvi hamda orografik xususiyatlari mintaqaning o'ziga xos iqlimini shakllantirgan. Hisor tizmasining g'arbiy cho'qqilari vodiyni sovuq havo massalarining kirib kelishidan himoya qiladi, janubiy tomoni ochiqligi esa issiq tropik havoning kirib borishi uchun zamin yaratadi",⁶³ - deya yoziladi Surxondaryo viloyati Boysun tumani tarixi o'rganilgan maqolada. Demak, Surxon vohasi tog' tizmalari bilan o'ralgan noyob relyefga ega hududlardan bo'lib, o'ziga xos iqlimiy qiyofani shakllantirib, O'zbekistonning eng iliq va quyoshli maskanlaridan biri sifatida ajralib turadi. Boysun – Surxondaryoning eng go'zal tabiat go'zalliklarini o'zida mujassam etishi bilan bir qatorda, milliy-urf odatlar va qadriyatlar beshigi, tarixiy yodgorliklar o'lkasi, shuningdek tarix o'rganilishida katta xissa qo'shgan kashfiyotlar jamlangan tabiiy muzey hamdir. Boysun Surxondaryo viloyatining nafaqat eng go'zal tabiat mo'jizalarini o'zida mujassam etgan betakror tumani, balki ko'p asrlik milliy urf-odat, qadriyatlar beshigi, tarixni o'rganishda katta hissa qo'shgan kashfiyotlar markazi, o'tmishga sayohat qilish imkonini beruvchi tabiiy muzeylar maskanidir. "Boysun viloyatning

⁶³ Inoyatova, Yulduz Qahramon qizi. "Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan Omonxona suvining tarixi va hozirgi kundagi o'rni." *Technical Science Research in Uzbekistan*, VOLUME-2, ISSUE-11, ISSN (E): 2992-9148, SJIF 2024 = 5.333, ResearchBib Impact Factor: 9.576 (2024), 81-bet.

g'arbida joylashgan bo'lib shimoli-sharqda Sariosiyo, sharqda Qumqo'rg'on, janubida Qiziriq, Bandixon tumanlari, janubi-g'arbda Sherobod tumani bilan, shimoli-g'arbda Qashqadaryo viloyatining Qamashi va g'arbda Dehqonobod tumanlari bilan chegaradoshdir. Quruq, subtropik iqlimga ega ushbu hudud, tog' oldi va adirlardan iborat.⁶⁴ Tog'lar orasidagi soyliklar, anhorlar tabiat ko'rkiga ko'rk qo'shadi. Yilning to'rt faslida ham o'ziga rom eta oladigan qir-adirlar manzarasi chiroyli taassurot qoldira oladi. Bu tabiiy muhitda yovvoyi o'simliklardan sho'ra, yantoq, qizg'aldoq, boychechak, yaltirbosh, no'xatak, tog'rayxon, kiyiko't, gulxayri, shuvoq; dorivor o'simliklardan alkor, hartol, zanjovul, o'lmaso't, qontepar, oqshair; archa, yovvoyi mevali daraxtlar va boshqalarni uchratish mumkin. Boysunda shuningdek, jayron, tog' echkisi, yovvoyi cho'chka, silovsin, sug'ur, bo'ri, tulki, chiyabo'ri, qo'ng'ir ayiq, jayra, qushlardan kaklik, kalxat, burgut, lochin, qarchig'ay, boyo'gli, olashaqshak va boshqa noyob hayvonlar yashaydi. Ammo, Boysunga turistlarning tashrifi bilan bog'liq ko'rsatkichlar tumanning florasi va faunasidagi xilma-xilliklar bilan emas, balki hududda qadim asrlardan buyon saqlanib kelayotgan, o'tmish nafasi ufirib turgan mo'jizaviy g'orlar, qal'alar va tarixiy obidalarni jonli ko'rish imkonini berishi bilan bog'liq. Qadimiy qal'ashaharlardan eng yiriklariga Poyko'rg'on, Qozimullatepa, Darband, Saribandtepa, Bo'yrachi Yalangto'shtepa, Munchoqtepa, Qiziljartepa, Mullatepa, Kallaqo'rg'on kabilarni misol qilib keltirish mumkin bo'lib, ular hududning qadimda strategik o'tish nuqtasi hisoblangani uchun mudofaa hamda hududiy nazorat vazifasini o'tagan. Dushman zarbasini oldindan kuzatib borish, aholini himoya qilish, karvonlar o'tuvchi yo'llarni nazorat qilish kabi maqsadlarda tashkil etilgan markazlar o'z asosi va poydevorini saqlab qolganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Teshiktosh, Machay, Katta Suluvkamar, Do'konxona, Amir Temur, Iskandarxon kabi g'orlar ibtidoiy odamlar tomonidan yashalganligi bilan ajralib turadi va insoniyat tarixining eng qadimgi real "arxiv"lari sifatida qadrlil manba hisoblanadi. Ularni o'rganish qadimgi insonlarning turmush tarzi, jumladan ov qilish usullari, kundalik hayotda ishlatilgan buyumlar va yashash sharoitlari haqida ma'lumot to'plash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu g'orlar madaniy meros, iqlim va tabiiy muhit, inson rivojlanish bosqichlari, diniy va badiiy tasavvurlarni o'rganishda muhim manba bo'lib, tarix, adabiyot, falsafa, geografiya va dinshunoslik kabi fanlarning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan..

Boysundagi ming yillik o'tmish guvohi hisoblanmish Sayrob chinori ham ancha vaqtdan buyon turistik obyektlardan biri sanaladi. Tabiat yodgorligi sifatida davlat qaramog'iga olingan chinorning yoshi, olimlarning fikricha, 1000 yilga yaqin. Uning balandligi 26, diametri 21 metrni tashkil etadi. Qiziq jihati shundaki, chinor o'tgan asr boshlari, ya'ni Oktabr to'ntarishiga qadar eski maktab faoliyatini o'tagan va ko'plab sayrobliklarning savod chhiqarishida "o'quv dargohi" vazifasini o'tagan. 1920 yildan boshlab ko'hna chinor qishloq kengashi idorasi sifatida xizmat qila boshlagan. 1932 -1934 yillarda birinchi otliq askarlar polkining lager kutubxonasi sifatida kitoblarga boshpana bo'lgan. 1936 yildan boshlab esa

⁶⁴ Boysun ma'naviyat beshigi: uslubiy qo'llanma. — Boysun: Boysun tuman Axborot-kutubxona markazi, Bibliografiya xizmati bo'limi, 2021.

qishloq savdo do'koni sifatida odamlarning hojatini chiqargan. Ushbu bahaybat daraxt kovagida bugungi kunda mo'jaz muzey tashkil etilgan. Boysun mana shunday mo'jizalar, tabiiy va madaniy yodgorliklar go'shasi. Bu maskandagi hayrotomuz hududlar mahalliy va hatto xorijiy turistlarni o'ziga jalb qilishda katta imkoniyatga ega.

O'zbekistonning yana bir ajiyb go'shalaridan biri Farg'ona vodiysi bo'lib bu viloyat go'zal, sehrli tabiati, yerosti boyliklari, xushhavo iqlimi tufayli nafaqat Markaziy Osiyoning, balki O'zbekiston Respublikasining gavhari deb ataladi. Tyanshan va Hisor-Oloy tog'lari bilan o'ralgan vodi, Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida hamisha muhim rol o'ynagan. Farg'onada Uchko'prik, O'zbekiston, Beshariq, Toshloq, Dang'ara, Furqat, Qo'shtepa, So'x, Rishton, O'ltir, Quva, Buvayda, Bag'dod, Altiariq kabi tumanlar bo'lib ulardan ayniqsa Rishton tumani milliy kulolchilik san'atini avloddan-avlodga o'tib kelishida eng ahamiyatli markazlardandir. IX asrdan boshlab Rishton hududi aholisi kulolchilik hunari bilan shug'ullanib keladi. Qariyb o'n bir asr davomida bu yerning ustalari mahalliy qizil gil asosida turli sopol buyumlar tayyorlab, ularni tabiiy ma'danli bo'yoqlar hamda tog' o'simliklari kulidan olinadigan sirlar yordamida bezash an'analarini avlodlarga yetkazib kelayotganlari kuzatiladi. Bugungi kunda Rishton kulollari tomonidan yaratilgan san'at namunalarini dunyoning ko'plab muzeylari va xususiy to'plamlarida uchratish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoniga muvofiq, tumanda bir nechta yirik loyiha hamda tadbirlar tashkil qilib kelinmoqda. Rishton tuamni Boysun kabi tabiiy mo'jizaviy yodgorliklarga boy bo'lmasada, tarixiy obidalar, ziyoratgohlar ko'pligi bilan ahamiyatlidir. "Rishtonida olib borilgan izlanishlar chog'ida Sohibi Hidoya, Oq mozor buva, Xo'ja jarboshi buva, Murod buva, Xo'jai Bob buva, Ismoil Eshon buva, Xo'ja Ilg'or ziyoratgohi, Abdulloh Ansoriy, Xo'ja Ro'shnoyi, Yigit pirim-Er hubbi, Hazrati Xizr qadamjolari, Abdulaziz Xondada, Sufiy Sodiq, Xo'jai Gaz, Hasan kulol nomi bilan ataluvchi ziyoratgohlar mavjud ekanligi aniqlangan"⁶⁵ Rishton shaharchasining Chinnigaron mahallasida qad rostlagan Sohibi Hidoya ziyoratgohi Farg'ona vodiysining ko'hna xotiralarini o'zida mujassam etgan maskanlardan biridir. Bu ziyoratgohning nomi islom huquqshunosligi olamida beqiyos iz qoldirgan alloma — Imom Abul Xasan Burhoniddin Abu ibn Abu Bakr ibn Abduljamil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'iloniy (1123–1197) shaxsiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ilmi fiqhning eng yirik namoyandalariidan bo'lgan bu buyuk alloma o'zining "Hidoya" asari bilan musulmon olamida ilmiy yulduzdek porlagani bois "Sohibi Hidoya" — "*Hidoya sohibi*" degan ulug' nom bilan e'zozlangan. Ziyoratgoh atrofida uchraydigan temuriylar davriga mansub pishiq g'ishtlar esa mazkur mozor ko'hna tarix sahifalaridan o'tib kelayotganidan darak beradi. Mazkur hududda joylashgan Xo'ja Ilg'or va Mulla Ismatulloh qori ziyoratgohlari ham O'zbekistonning madaniy meros durdonalaridan hisoblanadi. Farg'onaning shu birgina maskanida maqbaralar,

⁶⁵ Olimjonova F. D. Farg'ona ziyoratgohlari: afsona va haqiqatlar // *Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali*. – 2023. – Jild 02. – Nashr 03. – B. 14.

chillaxona g'ori, qorixonalar, ayvonlar, bog' va oromgoh kabi inshootlarning bir yerda jam bo'lgani bu yurtning tarixiy boyligidan so'zlaydi. Umumiy xulosa berganda Rishton tumani O'zbekistonning mashhur hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib, an'anaviy kulolchilik san'ati rivojlanganligi bilan tanilgan madaniy meros sayyohlar uchun qiziqarli tajriba taqdim eta oladi. Tuman madaniy tadbirlar bilan jumladan har yili o'tkaziladigan kulolchilik festivali bilan xorijiy mehmonlarni jalb qilishda ahamiyatli maskanlardan bo'lib kelmoqda.

“Namak kan” – “*tuz koni*” ma'nosidan kelib chiqqan Namangan ham qadim tarixga egaligi bilan O'zbekiston viloyatlari orasida alohida ajralib turadi. Namangan O'zbekistonning shimoli-sharqida, Farg'ona vodiysining tabarruk va serunum shimoliy qismida joylashgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Namangan shahri XVII asr boshlarida shakllana boshlagan. 1620-yilda sodir bo'lgan kuchli zilzila natijasida o'sha davrning yirik madaniy markazlaridan biri – Axsikent (Axsikat) vayron bo'lib, uning aholisi bugungi Namangan hududiga ko'chib kelib joylashgan. Shu tariqa yangi shahar taraqqiyot sari yuz tutgan. XVIII asrga kelib, Namangan Qo'qon xonligining muhim shaharlaridan biriga aylangan. Bu davrda u nafaqat siyosiy jihatdan, balki iqtisodiy va madaniy hayotda ham alohida mavqega ega bo'ldi. Shahar hunarmandchilik markazi sifatida mashhur bo'lib, unda ip va gazlamalar to'qilgan, mis buyumlar yasalgani, zargarlik san'ati rivoj topgani, mehnat qurollari tayyorlangan. Namanganning ko'chalarida ustalarning charxpalak shovqini, bozorlarida savdo-sotiqning qizg'in jarayoni uning jonli iqtisodiy hayotidan darak berib turgan. O'zining qirmizi olmalari, ming bir iforga burkangan gulzorlari, atlas-u adrasi va mehnatsevar insonlari bilan mashhur “Namangan aholisi qadimdan ilmga chanqoq bo'lib shahar aholisi orasidan ko'plab mashhur allomalar yetishib chiqqan. Bularga tasavvuf allomalaridan Mulla Bozor Ohund ,shayh va olim Mavlaviy Mulla Xo'ja Eshon, Sulaymon to'ra Ulug'xon To'ra o'gli Nodim Namangoniy kabi ulug' insonlarni misol qilib keltirish mumkin bo'lib viloyatda bir qancha ziyoratgoh va maqbaralarni uchratish mumkin. Bu yerdagi tarixiy obyektlar va madaniy qadamjolariga tarixiy va diniy ahamiyatga ega bo'lgan muqaddas qadamjo - Mingbuloq ziyoratgohi, viloyatning tarixi va madaniyati bilan tanishish uchun ajoyib maskan hisoblanmish Namangan yodgorlik bog'i, XIX asrda qurilgan, arxitektura o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan madaniy yodgorlik Maxdum Eshon majmuasi kabilar misol bo'la olsa, Namangan tog' tizmasining sokin va musaffo havoli qismida joylashib, o'zining tabiiy manzaralari bilan ajralib turadigan Chodak maskani; tog' landshaftining xilma-xilligini his qilish, o'simliklar dunyosi bilan yaqindan tanishish va ekologik kuzatuvlar olib borish imkonini taqdim etadigan Qo'yoq tog'lari; buloqlar, yam-yashil o'rmonzorlar va o'ziga xos daralar, tabiiy resurslarining boyligi bilan ajralib turadigan tabiat maskanlari Namaganda sayyohlar jalb qilinishida muhim o'rin egallab kelyapti. Hududda to'qimachilik, kulolchilik, zardo'zlik kabi qadimiy hunarlar nafaqat mahalliy bozorlarda, balki xalqaro maydonda ham yuqori baholanib, qadimiy hunarmandchilik turlarini asrab kelmoqda. ”Viloyatning barcha tumanida turistlarning e'tiborini tortuvchi go'shalar talaygina bo'lib, xususan Chust tumani o'zining pichoqchilik hamda do'ppichilik

an'analari bilan doim dunyoga mashhur hudud bo'lgan. Shu bilan bir qatorda Chust istirohat bog'ida joylashan kichkingina, ko'rimsiz bo'lishiga qaramay o'zida butun boshli tarixni namoyish eta olgan Chust tarixi va o'lkashunoslik muzeyi bugungi kunda turizm rivojida foydalanish mumkin bo'lgan maskan hisoblanadi".⁶⁶ Namanganning Yangi Qo'rg'on tumani esa o'zbek hunarmandchiligining milliyligini ochib beruvchi maskan bo'lib, samimiy mahalliy aholi bilan muloqot qilishga va ularning mehmondo'stligidan bahramand bo'lishga imkoniyat yaratadi. Hududdagi madaniy xilma-xillikni milliy bayramlar, an'anaviy san'at ko'rgazmalari, ayniqsa Namangan gullar festivallarida o'z aksini topib sayyohlar uchun noyob madaniy tajriba taqdim etib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda mamlakatdagi barcha viloyat va tumanlar xususan Boysun, Rishton, Chust va Yangiqo'rg'on mo'jizalarga boyligi, tarixiy ahamiyati, tabiiy go'zalligi, milliy urf-odatlar na'munasi sifatida O'zbekiston turizm salohiyati rivojlanishida xizmat qilib kelmoqda. Ammo, aslida targ'ibot ishlari kengroq olib borilsa bu borada yanada katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Shaxsiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlardagi noyob maskanlar va tarixiy obidalar haqida mediada yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Boysundagi qadimiy qal'ashaharlar — Poyko'rg'on, Qozimullatepa, Darband, Saribandtepa, Bo'yrachi, Yalangto'shtepa, Munchoqtepa, Qiziljartepa, Mullatepa, Kallaqo'rg'on kabi obyektlar haqida badiiy lavhalar deyarli tayyorlanmagan. Shuningdek, ibtidoiy odamlar yashagan g'orlar bilan bog'liq materiallarda kreativ yondashuv yetishmasligi, sifat darajasining pastligi va ularning chet tillarda ishlanmaganligi sayyohlik salohiyatini to'liq ochishga to'sqinlik qilmoqda. Etnoturizm bo'yicha saytlar tashkil qilinib, hududdagi markazlar haqida ma'lumotlar joylangan ammo, yetarlicha qiziqarli emas, turistik obyektlar haqida tayyorlangan materialar televideniya asosan reytingi baland bo'lmagan telekanallarda namoyish qilib boriladi bu esa ular haqidagi ma'lumotlarni keng yoyilishida to'sqinlik qiladi. Shu bois, ularni xalqaro va mahalliy sayyohlik salohiyatini to'liq ochish maqsadida keng targ'ib qilish zarur. Bu borada media va jurnalistik loyihalarni kengaytirish, jumladan, badiiy lavhalar, qisqa filmlar, interaktiv onlayn resurslar va virtual ekskursiyalar orqali tarixiy va tabiiy maskanlarni keng auditoriyaga yetkazish muhimdir. Ushbu materiallar yuqori reytingli kanallar, tok-shoular va ijtimoiy media platformalarida ham namoyish etilishi lozim. Yosh blogerlar va kontent yaratuvchilar o'rtasida kreativ "shorts" va multimedia tanlovlari tashkil etish orqali noyob hududlarni keng auditoriyaga tanitish mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan bunday tashabbuslar qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi lozim.

Mahalliy tarix va madaniyatni chet tillarda sifatli tarzda yoritish, interaktiv xaritalar va mobil ilovalar orqali turistlar uchun qulay navigatsiya va ekskursiya imkoniyatlarini yaratish, qadimiy qal'ashaharlar va g'orlar tarixini ommalashtirish, badiiy kreativ lavhalar tayyorlash

⁶⁶ Doniyorov A., Turdixojayeva M. Ekspozitsiyalarining etnoturizm rivojidagi o'rni // International Scientific and Practical Conference "The Silk Road: Cooperation through the Prism of Tourism", October 10–11, 2024. – Chust tarixi va o'lkashunoslik muzeyi, 2024. – P. 16

orqali jamoatchilik va turistlarning qiziqishini oshirish mumkin. Shu tarzda, hududning tarixiy va tabiiy merosi nafaqat ilmiy-ma'rifiy, balki madaniy va turistik qiymat jihatidan rivojlantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatov J. Chust tumani ziyoratgohlari tarixidan (Mavlono Lutfulloh ziyoratgohi misolida) // "Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg'unligi asosida O'zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasidagi maqolalar to'plami. – Toshkent Universitet, 2024. – B. 71–76.
2. Нажмиддин Файзиддин ўгли. Чуст тарихи. – Чуст, 1995. – 171 б.
3. Убайдуллаева Б. Этнотуризм тушунчаси, Ўзбекистонда этнотуризм шарт-шароитлари ва муаммолар // "Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg'unligi asosida O'zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasidagi maqolalar to'plami. – Toshkent Universitet, 2024. – B. 97–103.
4. Boysun ma'naviyat beshigi: uslubiy qo'llanma. — Boysun: Boysun tuman Axborot-kutubxona markazi, Bibliografiya xizmati bo'limi, 2021.
5. Etno-Travel Uzbekistan. <https://www.etno-travel.uz>
6. Wikipedia contributors. Uzbekistan tourism. Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Tourism_in_Uzbekistan